


“TASDIQLAYMAN”
Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i v.b.


L. Mirsoatova
2021 yil

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi to'g'risida NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi (keyingi o'rirlarda bo'lim deb ataladi) Toshkent viloyat statistika boshqarmasining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 29 maydag'i 137-k sonli buyrug'iga muvofiq tashkil etilgan va Toshkent viloyat statistika boshqarmasining (keyingi o'rirlarda boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi axborot-statistika tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

4. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'miasi to'g'risida"gi Nizomga, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'miasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga amal qiladi.

5. Bo'lim tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi hamda tadbirkorlik sub'ektlari kuzatuvlari masalalari bo'yicha faoliyatini Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma boshlig'inining birinchi o'rindosariga bo'ysunadi.

II. BO'LIMNING VAZIFALARI VA FUNKTSIYALARI

1. Bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-yuqori organlarning buyruq va farmonlar asosida statistik ma'lumotlarni rejalashtirilgan holda jamlash, qayta ishlash, sifatlari va vaqtida bajarish, hisobotlarni jamlash, statistik ma'lumotlarni chiqarish, sifatini oshirish ishlarini olib borishda haqqoniylilikni ta'minlash;

- tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, ro'yxatdan o'tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo ko'rsatkichlarining statistik hisobini yuritish, Toshkent viloyat bo'yicha muhim tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo jarayonlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshirish;

- statistik hisobot ko'rsatkichlarini tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini hamda statistik ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasiga oid davlat statistika hisoboti ko'rsatkichlarini ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

- qonunchilikka muvofiq bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish;

- hududning rivojlanishini yanada to'liq aks ettiruvchi kompleks statistik va tahliliy axborotlarni Internet tarmog'i, ommaviy axborot vositalari va mahalliy telekanallar orqali keng tarqatish.

2. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

-tanlanma statistik kuzatuvalar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar so'rovlarini sifatli amalga oshirilishini nazorat qilish;

-birlamchi qabul qilingan statistik hisobotlarni to'g'riligini tekshirish, hisobot to'g'risida tushuncha berish hamda korxona va tashkilotlardan kelib tushgan savollar ustida ishlash;

-hisobotlarning statistika organlariga Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda topshirilishi bo'yicha monitoring o'rnatish;

-hisobotlardagi ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirish orqali tanlanma va yakka holdagi kuzatuv ishlarini rejaga muvofiq amalga oshirish;

-davlat statistikasi sohasida huquqbazarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etish, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlar yaratish;

-hududlarni rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqa hududiy boshqaruvi organlari, davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qilish.

III. BO'LIMNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

1. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) belgilangan tartibda davlat statistika hisobotini olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi sohasidagi davlat statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish va yig'ma davlat statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

-hisobotlarni jamlash, noaniqliklar bo'yicha savollarni qayta ko'rib chiqib, qo'mitaga taqdim etish;

-xodimlar lavozimini o'zgartirishni, rag'batlantirishni, zarurat tug'ilganda esa intizomiy javobgarlikka tortish yuzasidan boshqarma rahbariyatiga taklif kiritish;

-bo'limga tegishli savollarni muhokama qilishda rahbariyat tomonidan uyushtirilgan majlislarda ishtiroy etish;

-bo'limga kerakli materiallarni boshqarma bo'limlaridan qabul qilish;

-korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar bo'yicha tug'ilgan savollarni muhokama qilish;

-jamjanma ma'lumotlarni yuqori tashkilotlarga taqdim etishda kerak bo'ladigan boshqa bo'limlardan ma'lumotlar olish;

-boshqarmada o'tkaziladigan yig'ilishlar va kengashlar ishida qatnashish;

-o'z vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha ma'lumotlarni va zarur bo'lgan materiallarni boshqa tashkilotlardan so'rash;

-bo'lim ishi bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun boshqarma tizimi xodimlarini jalb etish (rahbariyat bilan kelishgan holda).

2. Bo'limning majburiyatları quyidagilardan iborat:

-bo'limdagi ishlarni yo'lga qo'yish va amalga oshirishga hamda o'z vakolati doirasidagi boshqa materiallarning saviyasiga javob berish;

-mehnat qonunchiligi me'yorlariga rioxalashini ta'minlash;

-xodimlarning ish qobiliyatini oshirish maqsadida, ishlash uchun normal shart-sharoit yaratish va jamoada sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni saqlab turish uchun javob beradi.

3. Bo'lim xodimlari tomonidan ushbu Nizom talablari bajarilmaganda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

IV. BO'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.

1. Bo'lim o'z ishini boshqarma rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan istiqbol uchun ishlab chiqilgan va joriy rejalar asosida tashkil etadi.

2. Bo'lim Davlat statistika qo'mitasi bilan kelishilgan holda boshqarma boshlig'i tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan bo'lim boshlig'i tomonidan boshqariladi.

3. Bo'limning tuzilishi va shtat birligi soni amaldagi qonunchilikka asosan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

T/r	Lavozim	F.I.Sh.	Tanishtirilganligi to'g'risida imzosi
1.	Bo'lim boshlig'i	Rafikov Jamoliddin Abdunabievich	
2.	Bosh mutaxassis	Xoldarov Vaspiddin Aspariddinovich	
3.	Etakchi mutaxassis	Saparova Irina Konstantinovna	